

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniyl qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiylning inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiyl-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariyl-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiyl roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiyl adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198

**FALSAFA NIGOHIDA INSON KAPITALINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTDAGI ROLI****ФОРМИРОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ С ФИЛОСОФСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ****THE FORMATION OF HUMAN CAPITAL AND ITS ROLE IN DEVELOPMENT FROM A PHILOSOPHICAL PERSPECTIVE****Qosimov Fayzullajon Sa'dullayevich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson kapitalining zamonaviy fan, falsafa, siyosat va iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi, uning faqatgina iqtisodiy resurs emas, balki xalqlarning ma'naviyati va kelajagi uchun rivojlanish asosi deb sanalishi, falsafiy jihatdan tahlil qilishda ushbu tushunchadagi "inson" va "kapital" fenomenlarining mazmun-mohiyati hamda inson kapitaliga oid yondashuvlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, inson omili va inson salohiyati tushunchalari bilan aloqadorligini nazariy tahlil qilish orqali inson kapitali konsepsiyasi iqtisodiyotdagi samaradorlikni oshirish va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash uchun muhim instrument ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие человеческого капитала как одна из основных категорий современной науки, философии, политики и экономики. Подчеркивается, что человеческий капитал — это не только экономический ресурс, но и основа развития духовных ценностей и будущего народов. В статье проводится философский анализ сущности феноменов "человек" и "капитал" в рамках данного понятия, а также различных подходов к человеческому капиталу. Кроме того, через теоретический анализ взаимосвязи с понятиями человеческий фактор и человеческий потенциал раскрывается, что концепция человеческого капитала является важным инструментом повышения эффективности экономики и обеспечения социального прогресса.

Abstract

This article explores the concept of human capital as one of the fundamental notions in modern science, philosophy, politics, and economics. It emphasizes that human capital is not merely an economic resource, but also serves as a foundation for the development of the moral values and future of nations. The article analyzes the philosophical essence of the phenomena of "human" and "capital" within this concept, as well as various approaches to understanding human capital. Furthermore, through a theoretical analysis of its relation to the concepts of the human factor and human potential, it is revealed that the concept of human capital is a key instrument for increasing economic efficiency and promoting social progress.

Kalit so'zlar: inson kapitali, "inson" va "kapital" fenomenlari, zamonaviy fan, falsafa, siyosat, iqtisodiyot, inson salohiyati.

Ключевые слова: человеческий капитал, феномены "человек" и "капитал", современная наука, философия, политика, экономика, человеческий потенциал.

Key words: human capital, the phenomena of "human" and "capital", modern science, philosophy, politics, economics, human potential.

KIRISH

Bugungi kunda inson kapitalidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatdosh bo'lish uchun davlatlar o'z inson kapitalini rivojlantirishga investitsiya kiritishlari kerak. Ushbu vosita orqali fuqarolarning farovonligi ta'minlanadi, jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topadi va mamlakatning umumiy taraqqiyoti ta'minlanadi. Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida "inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash, milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish, undan samarali foydalanish, to'liq namoyon etish uchun shart-sharoitlarni yaratish masalalari mamlakatlarning xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini, aholining munosib hayot kechirishi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda inson kapitalidan samarali foydalanish" mexanizmlariga doir bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda [1]. Shuningdek, O'zbekistonning yangi taraqqiyot

FALSAFA

bosqichda “inson qadri” tamoyili asosida ijtimoiy davlatni shakllantirish, “dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishiga erishish ilm-fan, ta’lim-tarbiya va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali jamiyatda inson kapitalini yuksaltirish” davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi [2. 64].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoda jamiyatda inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy konseptual asoslarini tadqiq etish va sinergetik tahlili bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. G‘arb mamlakatlarida inson kapitalidan turli sohalar doirasida samarali foydalanish asoslari atroflicha o‘rganilgan. O‘tgan asrning o‘rtalarida g‘arb olimlaridan G.Bekker [3], T.Shuls [4], M.Bloug [5], Dj.Minser [6], S.Polachek [7] asarlarida va ilmiy tadqiqot ishlarida inson kapitali konsepsiyasining nazariy va uslubiy asoslari shakllantirilgan.

MDH mamlakatlarida ham inson kapitalidan ratsional foydalanish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda uning samarali jihatlarini asoslashga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, innovatsion rivojlanishning ustuvor omili sifatida makro-, mezo- va mikro-darajada inson kapitalining rivojlanishi va amal qilishining turli jihatlarini - L.G.Simkina [8], Yu.A.Korchagin [9], I.V.Skoblyakova [10], Z.R.Xabibullina [11], A.Podberezkin [12] singari olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekistonda ham so‘ngi yillarda inson kapitalidan oqilona foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish ishlari tobora jadallashib bormoqda va bir qancha olimlar bu muammoni o‘rganishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Xususan, inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini akademiklar R.A.Ubaydullayeva, K.X.Abduraxmonov, S.S.G‘ulomov, Sh.G.Akramovalar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, inson kapitalining nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ham ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, M.Abdullayeva ta’limda inson kapitali muammosi [13], Q.Nazarov milliy qadriyatlarning inson kapitali rivojlantirishdagi ahamiyati, F.Yuldasheva globallashtirish jarayonida ma’naviy qadriyatlar, G.G‘affarova inson kapitalini rivojlantirishda raqamlashtirish va milliy qadriyatlarning ahamiyati [14], G.Jalalova bilim va ilmiy bilimlar transformatsiyasi inson kapitalini shakllantirish omili [15], M.Sharipov intellektual inson kapitalining mohiyati va xususiyatlari, sog‘liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalarini [16] falsafiy tahlil etishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson kapitali tushunchasining falsafiy jihatdan tahlil qilishda “inson” va “kapital” tushunchalarining mazmun-mohiyati, inson kapitaliga oid yondashuvlar xususida fikr yuritishimiz kerak bo‘ladi. Darhaqiqat, inson kapitali (inglizcha “human capital”) zamonaviy fan, falsafa, siyosat va iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. U ikki so‘z “inson” va “kapital”dan tashkil topgan. Shuni ta’kidlash kerakki, inson ong va aqlga ega bo‘lgan ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadi. Shuningdek, “inson olamdagi boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya’ni aql, ma’naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy vujud, odam zotini anglatuvchi tushunchadir” [17. 199]. Shu ma’noda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot uchun muhim bo‘lgan inson resurslarining jihatlarini, ya’ni bilim, ko‘nikmalar, salomatlik va ijtimoiy munosabatlardan iborat bo‘lishi kelib chiqadi.

“Kapital” tushunchasi “ixtiyoriy ayriboshlash asosida iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish orqali ortiqcha qiymat olish uchun ishlatiladigan aktivlar majmui hamda daromat keltirishi mumkin bo‘lgan hamma narsa, odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslardir” [18. 895]. Shuningdek, keng ma’noda sarmoya o‘z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag‘lar, tor ma’noda yangi qiymat keltiruvchi, o‘zini o‘zi ko‘paytiruvchi qiymat sifatida qo‘llaniladi. Albatta, kapital keng qamrovli tushuncha bo‘lib asosan “moddiy boyliklar, pul zahirasi, ishlab chiqarishning moddiy omili, insonning bilim va qobiliyatlari, iqtisodiy o‘shishning ko‘p omilli nazariyasi insonga qilingan investitsiya, ya’ni inson kapitalining jamg‘arilishidir” [19. 14]. Bundan kelib chiqadiki, inson kapitali bilim olgan va maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxslarni o‘z ichiga oladi. Bu bilimlar formal ta’lim, kasbiy treninglar yoki shaxsiy tajriba orqali kelib chiqadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “kapital (lotincha capitalis – bosh, asosiy) – o‘zini o‘zi ko‘paytirish uchun foydalaniladigan, o‘z egasiga daromad, foyda keltiradigan boylik, kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ahamiyatga molik narsa” sifatida

ta'riflangan [20.316]. Shuningdek, klassik iqtisodiyot nazariyada "kapital" tushunchasi ikki xil qaraladi. Ya'ni, "ishlab chiqarish omillariga egalik huquqi va ulardan foydalanishdan tegishli daromad olish huquqi" sifatida [21. 322]. Boshqacha aytganda, kapital bu xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimini tavsiflovchi toifadir.

Qadimgi davrlardan inson salohiyatini rivojlantirish asosida iqtisodiy rivojlanishga erishish to'g'risida ko'plab mutafakkirlar o'z nuqtayi nazarlarini bildirib kelishgan. Misol uchun, hukumdor Xammurabi o'zining qonunlarida "yollanma mehnat munosabatlari, yollanma ishchiga haq to'lash va uning miqdori, ishlab chiqaruvchi shaxslarni qonun muhofaza qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan" [22]. Shuningdek, islom dinida ham inson o'z salohiyatini to'la-to'kis rivojlantirishi lozimligi ta'kidlanadi. Xususan, "islom dinining asosiy g'oyalari qatoridan joy egallagan "komil inson" g'oyasi, ya'ni har tomonlama jismoniy (salomatlik kapitali), aqliy (ta'lim kapitali), intellektual (intellektual kapital) va ma'naviy jihatdan rivojlangan inson shakllantirishni o'zida mujassam etgan ta'limot aslida inson kapitali nazariyasida ilgari surilgan asosiy g'oyalar bilan ustma ust tushadi" [23. 64-75].

Qadimgi Xitoy davlatida keng tarqalgan Konfutsiy ta'limoti bo'yicha, odamlar o'z tabiatlariga ko'ra bir xil, faqat tarbiya tufayli ular bir-birlaridan farq qiladilar. Konfutsiyni inson to'g'risidagi fikrlari "Suhbatlar va mulohazalar" asarida ifodalangan. Jamiyatda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar insonparvarlik tushunchasi sifatida o'z ifodasin topgan. Insonparvarlik deganda axloqiy normalar, udumlar, etiketlarga amal qilish, xususan, to'g'ri so'zli, oqko'ngil, mard bo'lish tushuniladi [24. 148-159]. Shuningdek, "odamdagi insonparvarlik, xayrixohlik har bir kishi o'ziga topshirilgan vazifani aniq bajarishi bilan amalga oshirilmog'i, chunonchi, davlat boshlig'i davlat ishlarini, ota otalik, o'g'il o'g'illik vazifasini bajarishi zarur" [25. 22-23]. Konfutsiy falsafasidagi insonparvarlik bilan yaxshilik orasidagi uyg'unlik insonning insoniyligini ifodalovchi olijanoblik ko'rinishlarini yagona bir butunga birlashtiradi va qudratli ijtimoiy tartib-intizom tizimining vujudga kelishi uchun asos yaratdi. O'z navbatida, "bunday tartib-intizom insonning ezgulikka qaratilgan xayrli ishlarida namoyon bo'ladi. Agar o'sha xayrli ishlar davlat tomonidan boshqarilsa kishilar tarbiyasida tub burilish sodir bo'ladi. O'zi faoliyat ko'rsatayotgan jamiyatda, fuqarolarning to'q farovon yashashlari uchun zarur bo'lgan siyosiy, ma'naviy axloqiy prinsiplarni ishlab chiqishga harakat qiladi" [26. 42-44]. U insoniylikning turli fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan inson faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun, boshqalar uchun yashamog'i darkor degan altruistik g'oyaning ilgari suradi.

O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari ham insonning qobiliyatini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tishgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy hikmatlarida "insonning kasb-hunar, san'atdagi fazilatlar har doim ham tug'ma bo'lavermasligi, ko'pincha ular mehnat mashaqqati va iroda yo'li bilan ro'yobga chiqishi qayd etiladi. Shubhasiz, bu ikki qobiliyat o'zaro uyg'unlashganda rivojlanish bo'ladi" degan fikrlar keltiriladi [27.127].

Abu Ali ibn Sino jamiyat taraqqiy etishi uchun odamlar o'zaro hamkorlik qilish kerakligi haqidagi fikrni aytib o'tadi. Buning uchun "insonlar turli kasb-korlar bilan shug'ullanishi oqibatida bir-birining ehtiyojlarini qondiradi" deb ta'kidlaydi [28. 120].

Boshqa bir mutafakkir, Abu Rayxon Beruniyning qayd etishicha, "bilimlarni egallamoq va hunar o'rganmoq uchun mehnat qilish zarur, bu esa doim davom etadigan va takomillashib boradigan jarayondir. U mehnatni turlarga ajratib, ularning har biri alohida talab va ehtiyojlar asosida vujudga kelishini ko'rsatib berdi. Binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini og'ir mehnat, deb biladi. Ilm olish, o'qish eng kerakli mehnat ekanligini isbotlaydi va shunga ko'ra olimlarning mehnatini qadrlash turli ilmlar ko'payishiga olib kelishini", ta'kidlaydi [29].

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasidagi ma'rifatparvarlik harakati vakillari ijodida ham inson va uning kamoloti, o'z salohiyatini rivojlantirish masalalari o'ziga xos talqin topdi. Ma'rifatparvar Ahmad Donish inson olamni, o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitni o'zgartirishga qodir. Buning uchun u nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni bilishi zarur, deb hisoblaydi. "Biz dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlarni kezib o'rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, dunyoning ajoyib sirli tomonlarini talqin etish uchun dunyoga kelganmiz", deb yozadi Ahmad Donish o'zining "Navodir ul-vaqoye" asarida [30. 60-61].

Xorijiy mamlakatlarda va yurtimizda bir qancha olimlar tomonidan "inson kapitali" tushunchasining ilmiy-konseptual asoslariga doir izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, inson kapitali tushunchasining iqtisodiy asoslarini o'rgangan olim S.Fisher fikricha, "kapital ma'lum vaqt davomida daromad keltira oladigan barcha narsadir" [31. 64]. Shuningdek, "kapital bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish vositalarini ham ishchi kuchini ham o'z ichiga oladi" [32. 64]. Shu bilan birga,

FALSAFA

Dj.Mill ta'kidlashicha, "insonning o'zi kapital emasligi, biroq uning faqat vosita vazifasini bajaradigan va faqat mehnat orqali amalga oshiriladigan orttirilgan qobiliyatlarini har qanday sharoitda ham "kapital" deb tasniflash mumkin" [33]. Demak, inson kapitali mamlakatning iqtisodiy farovonligi, ijtimoiy barqarorligi va madaniy taraqqiyoti uchun asosli platformani taklif etadi. Shu boisdan davlatlar ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy siyosati orqali inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Boshqa bir olim J.Kentrik fikricha, "inson kapitali birinchidan, ma'lum bir davr ichida ma'lum bir mahsulotni yaratish qobiliyati, ikkinchidan, daromad, shu jumladan, daromadning bozordan tashqari shakllaridir" [34. 98]. Xolbuki, inson kapitali ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy tushuncha sifatida "shaxsning aqliy mehnati va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi, kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o'rnini belgilab beruvchi omildir" [35. 14]. Ya'ni, "insonning ta'lim olishi va uning mehnat qobiliyatini oshirish kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga sarmoya kiritish natijasida daromad olish qobiliyati" [36.70]. Shunday ekan, bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. U insonlarning bilimlari, ko'nikmalari, ko'zqarashlari va salomatligi bilan bog'liq bo'lgan resurslar majmuini anglatadi. Inson kapitali konsepsiyasi, birinchi navbatda, odamlarning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni baholashga qaratilgan.

XULOSA

Inson kapitali mamlakatning iqtisodiy farovonligi, ijtimoiy barqarorligi va madaniy taraqqiyoti uchun asosli platformani taklif etadi. Shu boisdan davlatlar ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy siyosati orqali inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarurligi kelib chiqadi. Shu bilan birga, inson salohiyatining asosida uning bosh elementi inson kapitali turadi. Inson salohiyatining o'zagini esa qobiliyat tashkil etsa, ehtiyojlar uning asosidir. Tayyorgarlik esa bu ehtiyojlarni ham, qobiliyatlarni ham faollashtiradigan mexanizmdir. Qobiliyat inson faoliyatining markaziy bo'g'ini hamda inson kapitalining asosi sifatida ham qayd etiladi. Inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Odamlarning ta'limi va kasbiy tayyorgarligi ularni mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi. Bu esa fuqarolar orasida ishsizlik darajasini pasaytiradi, ijtimoiy tarmoqlarni kuchaytiradi va jamiyatni barqarorlashtiradi.

Inson kapitalining rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki ma'naviyat sohasida ham muhimdir. Ta'lim sohasida olingan bilimlar insonlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ma'naviyat darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda odillik, tenglik va huquqlarga hurmat qilish kabi qadriyatlar ustuvor bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. <https://www.devcommittee.org/sites/www.devcommittee.org/files/download/Documents/>
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. -B.104.
3. Berger G. Investment in Human Capital: A Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, 1962. Vol.70(5, Part 2, Supplemnt), Pp.9-49.
4. Schults T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review, 1961. Vol.51(1), -Pp.1-17.
5. Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey // Journal of economic literature. 1976. Sep 1, 14(3), -Pp.827-855.
6. Jacob M. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution // Journal of Political Economy, 1958. August, Vol.66, -Pp.281-302.
7. Mincer J., Polachek S. Family Investments in Human Capital: Earnings of Women // Journal of Political Economy, 1974. Vol.82, number 2, Part 2, March-April / <http://www.nber.org>
8. Симкина, Л.Г. Человеческий капитал в инновационной экономике. - СПб.: СПбГНЭА, 2000. - 48 с.
9. Корчагин Ю.А. Человеческий капитал и инновационная экономика России. Монография. - Воронеж: ЦИРЭ, 2012.
10. Скоблякова И.В. Циклы воспроизводства человеческого капитала. Монография. - М.: Манинстроение-1, 2006. 196 с.
11. Хабибуллина З.Р. Человеческий капитал креативного работника: Дисс.я канд.э.н. - Санкт-Петербург, 2021. - 184 с.
12. Подберезкин А. Национальный человеческий капитал. В 5 томах. Том 1, Роль идеологии в модернизации России. - М.: МГИМО-Университет, 2012. - 470 с.
13. Abdullayeva M.N., G'affarova G.G'. Inson kapitali ta'lim prizmasida // Globallashuv sharoitida O'zbekistonda innovatsion g'oyalarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-falsafiy, ta'limiy yo'nalishlarining rivojlanish istiqbollari: Respublika onlayn anjuman materiallari. - Toshkent, 2020.

14. Gaffarova G.G. Human capital as the basis of society development // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. –USA, Harrisburg, 2021. №04(96), -P.455-460.
15. Jalalova G.O. Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarining epistemologik mohiyati. Diss.fals.fan.doktori (PnD). - Toshkent, 2018.
16. Sharipov M. Intellectual inson kapitalining mohiyati, manbalari va xususiyatlari // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.694-703.; Sharipov M. Sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalari va ahamiyati // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.710-719.
17. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: «G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi», 2010. –B.199.
18. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. -Москва.: Книжный мир, 2003. –С.895.
19. Akramova Sh.G. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish: Diss.ya avtoreferati iqt.f.b.f.d. (PhD). – Toshkent, 2019. –B.14.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2001. –B.316.
21. Карпенко Е.З. Сущностная определенность категории «человеческий капитал» // Региональные проблемы преобразования экономики. 2012. №20, -С.315-322.
22. Законы Вавилонского царя Хаммурапи. <http://www.hist.msu.ru/ER/Text/hammurap.htm>
23. Md. Faruk Abdullah, (2012), "The role of Islam in human capital development: a juristic analysis", Humanomics, Vol. 28 Iss 1 pp. 64 - 75 Permanent link to this document: <http://dx.doi.org/10.1108/08288661211200997>
24. Древнекитайская философия. В двух томах. Том I. М.. 1972, 148 , 149, 159 бетлар.
25. Законы манну. М., 1960. 22-23 бетлар.
26. Философия . Часть первая. Истории философии. М, 1999.
27. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi tashkiloti. 1993.- B. 127.
28. Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Т.: Укитувчи, 1979. -С.120.
29. Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минерология). Перевод А.М. Беленицкого. Под. Ред. Г.Г. Леммлейна, Х.К. Баранова и А.А.Долилиной. М.- Л., 1963.
30. Ахмад Дониш. Наводир ул-вақоеъ. - Т., 1964 йил.
31. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – М.: Дело ЛТД, 1995. – С.64.
32. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – М.: Дело ЛТД, 1995. – С.64.
33. Mill Dj.S. Principis of Political Economy with some of their Application to Social Philosophy. – London, 1857.
34. Дятлов С.А. Основы теории человеческого капитала. – СПб.: СПб УЭФ, 2005. – С.98.
35. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli Risola. – Samarqand: SamDU, 2015. –B.14.
36. Зуллуев А.М., Примов Э.Б. Человеческий капитал в современном обществе // Территория науки, 2016. №6, -С.70.